XALQ DEPUTATLARI UCHQO`RG`ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 27 - dekabr VI-62-118-6-87-K/23 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 27 dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi №01-14/20-01-32/814/1-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni hamda Xalq Deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 27 dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-son qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 27 dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga muvofiq, Uchqo‘rg‘on tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 77 693 715,0 ming.so‘m, xarajatlari 252 426 603,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 174 732 888,0 ming.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul

qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun maxalliy budjetga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun Uchqo‘rg‘on tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 245 478,0 ming.so‘m miqdorida belgilansin.

8. 2024-yil uchun Uchqo‘rg‘on tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 022 063,0 ming.so‘mga belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Uchqo‘rg‘on tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

v) viloyat budjeti hamda Uchqo‘rg‘on tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha, tabiiy gaz uchun qat’iy belgilangan stavkadagi aksiz solig‘i, neft mahsulotlari uchun aksiz solig‘ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.To‘lamirzayev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Nosirov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.A’zamxanov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Uchqo‘rg‘on tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.A’zamxanov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining

soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

12. Uchqo‘rg‘on tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.To‘lamirzaev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Nosirov):

Uchqo‘rg‘on tuman budjeti tasdiqlangan xarajatlarining (zaxira jamg‘armasi mablag‘larisiz) kamida 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy budjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Uchqo‘rg‘on tumani xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

13. Mazkur qaror “Yorqin xayot” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

14. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi A.Mo‘minov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.To‘lamirzayevlar zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **J.N.Rizzayev**

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023-yil 27-dekabrdagi
VI-62-118-6-87-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Uchqo‘rg‘on tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi

	Daromad turlari	Uchqo‘rg‘on tumani
1	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 593 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 235 000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	979 000
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8 546 892
5	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	60 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	0
8	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 066 422
9	Korxonalar aylanmasidan soliq	8 674 000
10	Jarimalar	1 275 900
11	Yig‘imlar	3 953 920
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	118 435

13	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	27 191 146
JAMI		**77 693 715**

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023-yil 27-dekabrdagi
VI-62-118-6-87-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetidan Uchqo‘rg‘on budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	ming so‘mda	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**
1	Uchqo‘rg‘on tumani	174 732 888	31 401 995

* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023-yil 27-dekabrdagi
VI-62-118-6-87-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Uchqo‘rg‘on tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/p	Ko‘rsatkichlar	Mablag‘ miqdori
Uchqo‘rg‘on tuman budjetidan ajratiladigan mablag‘lar jami		**252 426 603,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	224 547 847,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	0,0
	tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi	2 245 478,0
	Tashabbusli budjet jamg‘armasi	25 633 278,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstrukцiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
1	**Uchqo‘rg‘on tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**39 772 850,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	39 772 850,0
2	**Uchqo‘rg‘on tuman Tibbiyot birlashmasi**	**118 623 850,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	118 623 850,0
3	**Uchqo‘rg‘on tuman Madaniyat bo‘limi**	**7 190 535,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 190 535,0
4	**Uchqo‘rg‘on tuman Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**12 175 987,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 175 987,0
5	**Uchqo‘rg‘on tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**2 514 635,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 514 635,0
6	**Uchqo‘rg‘on tuman Irrigatsiya bo‘limi**	**2 465 360,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 465 360,0
7	**Uchqo‘rg‘on tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**6 349 075,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 349 075,0
8	**Uchqo‘rg‘on tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash**	**1 611 447,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 611 447,0
9	**Uchqo‘rg‘on tuman Soliq inspeksiyasi**	**4 438 299,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 438 299,0
10	**Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi** *(Obodonlashtirish boshqarmasi hamda Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi muassasalar)*	**57 284 565,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	29 405 809,0
	shundan:	
	tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi	2 245 478,0
	Tashabbusli budjet jamg‘armasi	25 633 278,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023-yil 27-dekabrdagi
VI-62-118-6-87-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024 yil uchun Uchqo‘rg‘on tumanining, Namangan viloyat va tuman budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar

foiz xisobida

№	Hududlar nomi	Tuman budjetiga	Viloyat budjetiga
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	100%
2	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	100%	0%
3	Yuridik shaxslar yer solig‘i	0%	100%
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	30%	70%
5	Korxonalar aylanmasidan soliq	100%	0%
6	Davlat boji	0%	100%
7	Jarimalar	30%	70%
8	Yig‘imlar	100%	0%
9	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0%	100%
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100%	0%
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	40%	60%
12	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar	0%	100%

13	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0%	100%